SO‘ZLOVCHINING ICHKI HOLATINI IFODALASHDAGI TURLI GRAMMATIK VOSITALAR („IKKI ESHIK ORASI „ ROMANIDA)

Sharipova Maxliyoxon G’ayratovna
FarDU akademik litsey o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24044680

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning”Ikki eshik orasi” romanida ruhiy holat ifodalaydigan lingvogenderologik xususiyatlar haqida fikr keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolingvistika,funktsionallashish , paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar, lingvogenderologik xususiyatlar

Tananing titrashi fiziologik holat sanalib, beixtiyor yuzaga chiqadi. Qattiq qo‘rquv, hayajon ta’sirida tana va uning a’zolari qaltiraydi, titraydi. Titrashning kuchlilik darajasi hissiy bosimning darajasiga mos ravishda bo‘ladi, ya’ni kuchliroq hayajonda qattiqroq, pastroq darajadagi hayajonda yengil titrash kuzatiladi. Bu fiziologik holat ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaydi, beixtiyor yuzaga chiquvchi holat sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da titramoq fe’li quyidagicha izohlanadi: Titramoq 1. Sovuqdan, qo‘rquvdan, hayajondan yoki darmonsizlikdan, kasallik va sh.k.lardan qaltiramoq[1].

– “Qora amma”, dadamni uyg‘oting, – dedim titrab – Ikkinchi qilmayman (33-bet).

Ushbu kontekstda Muzaffarning dadasidan qo‘rqib titrashi ifodalangan bo‘lsa, quyidagi misolda “Qora amma”ning alamdan, iztirobdan titragani keltirilgan:

Kelinlar to‘dasi yor-yor aytguncha eshikka yaqinlashdi. Hovlidagi fonuslarning nuri g‘ira-shira yoritib turgan eshik oldida “Qora ammam”ni ko‘rib qoldim. Qo‘lida bog‘ichi yechilgan qiyiqcha. Boshidan ro‘moli sirg‘alib yelkasiga tushgan. Negadir titraydi. Oppoq sochlari uchidagi so‘lkavoy cho‘lpilarining jiringlashi childirma shovqini, surnay ovozida eshitilmasa ham bir-biriga urilib ketayotganini sezdim (122-bet).

O‘g‘li urushda bedarak yo‘qolgan “Qora amma” asrab olgan qizi, o‘g‘liga kelin qilmoqchi bo‘lgan qiz – Robiyani o‘zi ko‘ndirib ukasiga turmushga beradi. “Qora amma” ichki hissiyotlarini bildirmaslikka harakat qiladi, lekin to‘y kuni alamdan, iztirobdan, o‘g‘li kelmaganidan azob chekkani sabab unda beixtiyor fiziologik holatlar yuzaga chiqadi: boshidan sirg‘alib tushgan ro‘molini his qilmaydi, titraydi, karaxt holga tushib qoladi. Chunki “Qora amma”ning Robiyani Shomurodga turmushga uzatishi o‘g‘li Kimsanning o‘lganini tan olish, uning qaytib kelmasligiga ko‘nishni anglatardi. “Qora amma” dardini, iztiroblarini hech kimga ayta olmas edi, shu sababdan ham muallif ayolning ruhiy holatini ifodalash uchun noverbal vositalarni tanlaydi.

Gavda, tana harakatining to‘xtashi ham ma’lum hissiy-ruhiy holatlar sababli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, qo‘rquvdan, hayratdan, ajablanishdan nima qilishni bilmay to‘xtab qolish kuzatiladi:

Endi inga qo‘l cho‘zgan edim, bir chumchuq ovozi boricha chirqillab shundoq tumshug‘im oldidan uchib o‘tdi. Yuzimga qanoti tegdiyam. Qo‘rqqanimdan to‘xtab qoldim (36-bet).

Choyxonaga olib chiqadi. Xullas, choyxona – o‘zimizning uy. Lekin hozir choy ichishga vaqtimiz yo‘q. “Qora ammam”nikiga tezroq borish kerak. Ana, dadam tuproq yo‘lda to‘xtab, jahl bilan o‘girildi. – Bo‘lsang-chi! Hali-zamon kun yoyilib ketadi. Dalaga chiqishim kerak (21-bet).

Kinetik vositalar ichida eng faol ishlatiladigani qo‘l harakatidir. Chunki kishi a’zolari ichida eng harakatchani va nutq jarayonida ekspressivlik, tasviriylikni kuchaytirish uchun eng ko‘p xizmat qiladigani qo‘ldir. Kar-soqovlar kommunikatsiyasining, asosan, qo‘l va uning barmoqlari harakatiga

[1]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.301.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

asoslanishi ham bejiz emas, albatta[2]. Qo‘l harakatlari ayrim hollarda ixtiyoriy ravishda qo‘llansa, ayrimlari odatga aylanganidan yoki psixofiziologik belgi sifatida beixtiyor qo‘llanadi. “Ikki eshik orasi” romanida qo‘lini paxsa qilmoq, qo‘l siltamoq, uloqtirmoq, g‘ijimlamoq kabi kinetik harakatlar qahramonlarning ruhiy-hissiy holatini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qo‘lini paxsa qilmoq iborasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Kaftini katta ochgan holda tinglovchi tomon cho‘zib, dag‘dag‘a bilan gapirmoq”[3]. Qo‘lini paxsa qilish suhbatdoshdan jahli chiqqanda, suhbatdoshga ta’na qilganda, o‘dag‘aylaganda qo‘llanadi:

– Aytdim! – Oqsoqol buva birovga o‘chakishgandek jahl bilan qo‘lini paxsa qildi. – Bolsheviklik vijdonimni o‘rtaga qo‘yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz malimga tuhmat qilgan, dedim! (61-bet)

Asarda qo‘lini paxsa qilmoq iborasi 18 marta qo‘llangan.

Qo‘lidagi narsani uloqtirib yuborish ham jahl chiqqanini, so‘zlovchining kayfiyati yomonligini, suhbatdoshga ta’na, malomat, achchiqlanishni bildiradi:

– Nima bu? – dedi changalidagi uch so‘mlik, so‘mlik pullarni ko‘rsatib.

Hazilga oldim.

– Pul shekilli, Safar aka...

– To‘g‘ri, pulga o‘xshaydi, ammo-lekin pulmas, ma, to‘yingga ishlat! – U ko‘kimtir pullarni siltab, uloqtirib yubordi (9-bet).

Safar akaning jahli chiqqani ham verbal, ham noverbal vositalar yordamida ifodalangan. Uning nutqidan jahli chiqqani anglashilsa, uning pullarni uloqtirib yuborishi Muzaffardan achchiqlanganini, alamzadaligini ham bildirib, nutqining ta’sirchanligini oshiradi.

Qo‘l siltamoq birikmasining bir necha xil ma’no anglatishi ma’lum: 1) qo‘lni keskin silkitib, norozilik, jahl, umidsizlik kabi ma’nolarni ifodalamoq; 2) beparvo bo‘lmoq; voz kechmoq; 3) e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik bilan qaramoq[4]. Quyidagi kontekstda ushbu birikma “ensasi qotish” ma’nosi bilan birga ishonchsizlikni ham anglatgan:

Bobom ensasi qotib, qo‘l siltadi. – Ilmi bormish. O‘zi aytdi-ku, qo‘limda qog‘ozim yo‘q deb..

– Qo‘ysang-chi, gap qog‘ozdami? – dedi Oqsoqol xo‘mrayib (70-bet).

Ayrim hollarda ruhiy holat, hissiyotlar ta’sirida inson beixtiyor noverbal harakatlarni amalga oshiradi, buni ko‘p hollarda o‘zi sezmaydi ham. Qo‘lini paxsa qilish, qo‘lidagi narsani uloqtirish, qo‘l siltash kabi kinetik harakat ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, asabiylashish natijasida yoki o‘yga tolgan holda qo‘lidagi buyumni g‘ijimlash esa ko‘p hollarda beixtiyor amalga oshiriladi:

Har ehtimolga qarshi xontaxta atrofiga uchalamiz cho‘kdik: hamon bola emizayotgan Fotima kelin, qo‘lidagi kir sochiqni asabiy g‘ijimlayotgan Zuhra kelin, men... (76-bet)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – 178 б.
2. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. –187 б.
3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 148 б.
4. Миртожиев М. Товушлардаги маънолар. – Тошкет, 1982. – 177 б.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
6. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Монография. – Фарғона, 2021. – 224 б.
7. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 317 б.

[2] Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.226.

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.684.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.634.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.